

**BOLALAR CHANOQ-BO'G'IM SUYAKLAR PATALOGIYASI:
DISPLAZIYA KASALLIGINI ERTA MUDDATLARD A NIQLASH
ANIQLASH VA DAVOLASH**

Saidova Gulruh Kilich qizi

Haydaraliyeva Zarnigor Ravshanovna

Turopova Guljaxon Nosir qizi

Angren Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya:

Displaziya (lotincha «*noto'g'ri rivojlanish*») chanoq-son bo'g'imining tug'ma kasalligidir. Aslida bu holat bola bo'g'imidagi boylam va mushaklar tonusining bo'shligi sabab yuzaga keladi va bir oylikda o'z-o'zidan o'tib ketadi. Lekin har ming chaqaloqning to'rt-besh nafari son suyagining chiqishi kuchli bo'lishi sabab shifokorga murojaat qiladi. Chanoq-son bo'g'imi tug'ma displaziyasi uch xil ko'rinishda bo'ladi: displaziya, chala chiqish, son suyagining to'liq chiqishi.

Kalit so'zlar: chanoq suyaklari, embryonal davr, displaziya, vitamin, kalsiy, egrilik, ultratovush, rengenografiya.

Chanoq (tos) — odam organizmi skeletning quyi qismi bo'lib, oyoqlarni tanaga birlashtiradi. Chanoq umurtqa pog'onasi va tananing yuqori qismi uchun tayanch vazifasini bajaradi. Chanoq o'ng va chap nomsiz chanoq suyaklari hamda dumg'aza va dum suyaklaridan hosil bo'ladi.

Chanoq suyaklari bir-biriga oldidan qov simfiziga o'xshab, orqadan esa juft dumg'aza yonbosh bo'gimlari ko'rinishida dumg'azaga birikadi. Bolalarda har bir nomsiz suyaklar yonbosh, quymuch va qov suyaklaridan tashkil topadi. Ular birlashish joyining tashqi tomonida quymuch kosasi joylashadi.

Displaziya — embriogenez va tug'ilgandan so'ng davrda organ, to'qima yoki tana qismlarining anomal rivojlanishi. Hozirgi vaqtda displaziya, xavfli o'smalar rivojlanishidan oldin epiteliy hujayralarining tartibsiz o'zgarishlarini, ya'ni hujayralar va umuman to'qima kompleksining neoplastik (o'sma to'qimalari rivojlanishiga tomon yo'nalgan o'sish), normadan tashqari, o'sma hosil bo'lishiga



moyil o'zgarishini anglatadi. Oldigi vaqtlarda displaziya faqat yassi epiteliy hujayralariga xos o'zgarish deb hisoblanar edi, hozirga kelib esa bu jarayonni morfologik jihatdan chuqurroq o'rganish u boshqa to'qima hujayralari, prizmatik, ichki sekretiya bezlari epiteliysi va h. k.ga ham taalluqli ekanligi ma'lum bo'ldi. Hujayra va to'qimalardagi o'zgarishlarning og'ir yengilligiga qarab, Dizplaziyaning 3—4 darajasi tafovut qilinadi. Uning eng og'ir turi "malignizatsiya" — butun to'qimani qoplab oladi, hatto o'smaning invaziyasi bilan tugashi ham mumkin. Displastik o'zgarishlarning tobora kuchayib, rivojlanib borishi pirovardida o'sma paydo bo'lishiga olib keladi.

Chanoq-son bo'g'imi tug'ma displaziyasi o'g'il bolalarga nisbatan qizlarda 5-7 marta ko'proq uchraydi. Dumbasi bilan tug'ilgan chaqaloqlarning 50 foizida displaziya kuzatiladi. Homiladorlikning birinchi yarmidagi turli xastaliklar, jumladan, toksikoz kasallikni keltirib chiqaruvchi asosiy omildir. Bo'lajak onaning turmush tarzi va ish joyidagi ekologik holat ham katta ahamiyatga ega. Bular displaziya rivojlanishiga va hatto, son suyaklarining tug'ma chiqishiga olib keladi. Ayrim oilalarda son suyagi tug'ma chiqishiga moyillik nasldan naslga o'tadi.

Son suyagining tug'ma chiqishi — tayanch-harakat tizimi tug'ma nuqsonlarining eng ko'p uchraydigan turi. Unda chanoq-son bo'g'imi barcha elementlarining noto'g'ri rivojlanishi oqibatida bo'g'im kosachasi va son suyagi boshchasining bir-biriga nisbatan to'liq siljishi kuzatiladi. Son suyagi boshchasi bo'g'im kosachasidan tashqariga va yuqoriga siljiydi.

Bolaning tayanch-harakat va asab tizimi to'liq rivojlanmagani sabab son suyagi tug'ma chiqishida og'riqlar kuzatilmaydi. Bolalar shifokori klinik, ultratovush apparati va rentgenografiya usuli yordamida tashxis qo'yishi mumkin.

Agar bolada quyidagi belgilar kuzatilsa, ortopedga murojaat qilish zarur:

Bir yoki ikkala son ochilishining chegaralanishi. Bolaning oyoqlari chanoq-son va tizza bo'g'imlaridan to'g'ri burchak ostida bukib, yon tomonga ochiladi. Me'yorda uning ochilish burchagi 160 — 180 daraja. Displaziyada bu burchak kamayadi.

«Qirsillash» belgisi chaqaloqlarda uch oylikkacha kuzatiladi. Buni aniqlash uchun chaqaloqning oyoqlari chanoq-son va tizza bo'g'imlaridan to'g'ri burchak ostida bukib turib, o'rta chiziqqa keltirilib, so'ngra sekin ochiladi, shunda chiqish tomonda qirsillash eshitiladi.



Oyoqlarning kaltaligi. Chaqaloqning oyoqlari chanoq-son va tizza bo'g'imlaridan bukilib, qoringa simmetrik yaqinlashtiriladi va tizzalar sathida kaltalik aniqlanadi. Teri burmalari asimmetriyasi. Me'yorda bolaning oyoqlari yozilgan va birlashtirilganda old va orqa sonda teri burmalari simmetrik bo'ladi. Ularning asimmetriyasi o'sha tomonda chanoq-son bo'g'imi displaziyasi borligini ko'rsatadi.

Aniq tashxis qo'yilgandan so'ng bemorning yoshi va kasallik darajasiga qarab, ambulator sharoitda yoki statsionarda davolash ishlari olib boriladi. Davolash davomiyligi o'rtacha to'qqiz-o'n bir oyni tashkil etadi. Kasallik o'z vaqtida aniqlanib (3-12 oylikkacha), shifokor ko'rsatmasiga rioya qilinsa, undan to'liq forig' bo'lish mumkin.

Bo'g'imlar displaziyasi – bu tos suyagi chuqurchasining tug'ma yaxshi rivojlanmaganligi bo'lib, bo'ksa suyagi bilan son suyagi tutashgan joyda nuqson kuzatiladi. Bunday bolalarda son suyagi bilan bo'ksa suyagi tutashgan joy chiqib ketishga moyil bo'ladi, yaxshi o'smaydi. Bolalardagi tug'ma displaziyani tug'ilgandan keyin darhol aniqlash mumkin, ammo kattalarda bu kasallik kam uchraydi.

Displaziya tananing quyidagi qismlarida yuzaga kelishi mumkin:

- chanoq-son bo'g'imlarida;
- tirsak bo'g'imida (juda kamdan-kam hollarda);
- yelka bo'g'imida;
- tizza bo'g'imida.

Kasallik biriktiruvchi to'qima tuzilmalarining buzilishi tufayli rivojlanadi. Sabablari:

- irsiy omil, ya'ni irsiyat;
- tug'ruq paytidagi yoki tug'ishdan keyin jarohatlar;
- homilador ayol organizmidagi gormonal buzilishlar;
- bachadonda homilaning noto'g'ri joylashuvi (chanoq-son bo'g'imlari displaziyasini keltirib chiqaradi).
- Shuningdek, agar ota-onaning yoshi 40 yoshdan oshgan bo'lsa, chaqaloqda kasallik aniqlanishi ehtimoli bor.

Displaziyaning har bir turi uchun kasallik belgilari farq qiladi:



Chanoq-son displaziyasida: bolaning oyoqlari har xil uzunlikda, assimmetrik dumbalar, dumba burmalari ham assimmetrik holatda, oyoqlar bir-biridan uzoqlashtirilganda ularda ham assimmetriya kuzatiladi;

Yelka displaziyasi: kurak suyagi shakli o'zgaradi, harakat paytida og'riq paydo bo'ladi, bo'g'im chiqishi holatlari tez-tez kuzatiladi;

Tizza displaziyasi: harakat paytida tizza og'riydi, tizza kosachasi shakli o'zgaradi.

Displaziya tashxisini qo'yish uchun ortoped quyidagi tekshiruvlarga yo'naltiradi:

- bo'g'implarning ultratovush tekshiruvi;
- bo'g'implarning rentgenologik tekshiruvi.
- Bo'g'implar displaziyasini davolash uchun quyidagilar buyuriladi:
- massaj;
- davolovchi jismoniy mashqlar;
- fizioterapiya;
- dori vositalari;
- maxsus shinalar yoki moslamalar;
- jarrohlik operatsiyalari (sun'iy bo'g'im o'rnatish).

Davolashning barcha usullari (jarrohlikdan tashqari) faqat bir yoshga qadar samarali bo'ladi. Bir yoshdan keyin displaziya faqat jarrohlik yo'li bilan davolanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. <https://avitsenna.uz/>